
Mahalla faollari va "Oqila ayollar" harakati a'zolari ishtirokida sumalak solinib, madaniy tadbir o'tkazilmoqda

"Soy bo'yi" mahalla fuqarolar yig'inida ham "Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan madaniy tadbir o'tkazilmoqda. Unda mahalla faollari hamda "Oqila ayollar" harakati a'zolari ishtirok etishmoqda.

Madaniy tadbir davomida doshqazonga bahoriy taom sumalak solinib, pishirilmoqda. Bahor fasliga tinchlik-xotirjamlikda yetib kelingani, dehqonchiliklar mo'l hosil berishi, aholining ahil bo'lishi, yoshlarimizning barkamol inson bo'lib kamol topishlari hamda bemorlarga shifo tilab duolar qilinmoqda.

Mahalla ayollari bahoriy taomlar ham pishirmoqdalar. Ertaga sumalak pishgach, mahalla hududidagi bemor fuqarolar, ehtiyojmand xonadonlar holidan ham xabar olish rejalashtirilgan.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati
2023-03-11 01:53:39